

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV

¹N.X.Xusanova

¹Fizika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: ²M.N.Nizamova

²Pedagogika fanlari bo'yicha Phd

xusanovanilufar262@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining mazmuni, ta'lim tizimida yangicha yondashuv tuzilishi va asosiy bosqichlari yoritilgan. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, uzluksiz ta'lim tamoyili hamda kadrlar tayyorlashdagi ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuv masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, uzluksiz ta'lim, ta'lim islohotlari, ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash, ta'lim sifati, modernizatsiya, innovatsion ta'lim, raqamli texnologiyalar, O'zbekiston Respublikasi.

НОВЫЙ ПОДХОД К СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание, структура и основные этапы системы образования Республики Узбекистан. Проанализированы реформы, проводимые в системе образования, принцип непрерывного образования, а также приоритетные направления подготовки кадров. Особое внимание уделено вопросам повышения качества образования и его адаптации к международным стандартам.

Ключевые слова: система образования, непрерывное образование, образовательные реформы, Закон об образовании, подготовка кадров, качество образования, модернизация, инновационное образование, цифровые технологии, Республика Узбекистан.

A NEW APPROACH TO THE EDUCATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article examines the content, structure, and main stages of the education system of the Republic of Uzbekistan. The reforms being carried out in the education system, the principle of lifelong education, and the priority directions in

personnel training are analyzed. Special attention is also paid to issues of improving the quality of education and adapting it to international standards.

Keywords: education system, lifelong education, educational reforms, Law on Education, personnel training, quality of education, modernization, innovative education, digital technologies, Republic of Uzbekistan.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, inson huquqlari va erkinliklariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash, zamonaviy texnologiyalarni boshqarish, jamiyatni ma’naviy yangilash va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashgan holda bozorga asoslangan ijtimoiy yo’naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish yo’lini tanladi va olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ta’lim sohasi davlat tomonidan boshqariladi va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun asosida faoliyat yuritadi. Ta’lim tizimining asosiy maqsadi – raqobatbardosh, bilimli va ma’naviy yetuk kadrlarni tayyorlashdan iborat.

1992 yilda mustaqillikka erishganidan ko’p o’tmay qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to’g’risida" gi qonunida ta’lim suveren O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo’nalishi sifatida qaraldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil avgust) Ta’lim to’g’risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yangi tahririni qabul qildi. Ta’lim tizimining barcha sohalarini isloh qilish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan ushbu asosiy hujjatlar zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimini shakllantiradi, yangi aloqalar va shakllar bilan boyitilgan. Ular orasida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bor.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida jahon ta’lim tizimlarining yutuqlari, buyuk ajdodlarimizning ko’p asrlik tajribasi yosh avlodni tarbiyalashda, respublikamiz taraqqiyotining o’ziga xos xususiyatlariga, o’zbek xalqining mentalitetiga asoslangan. 1997 yilda ta’lim sohasida tub islohotlar boshlandi (O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to’g’risida" gi qonunining yangi tahriri qabul qilindi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tasdiqlandi).

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosini tashkil etadigan asosiy prinsip hozirgi vaqtda ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, isloh qilish va modernizatsiyalashning konseptual asoslari ishlab chiqish tashkil etadi. Bu xususida horijlik olimlar, xalqaro tashkilotlarning ekspertlari, "Barkamol va intellektual rivojlangan avlodni tayyorlash - mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiya qatnashchilari (Toshkent, 2012 yil 16-17 fevral) uzluksiz ta’lim tizimining noyob o’zbek modelini yaratishda muvaffaqiyat qozonganliklarini ta’kidladilar. Nima uchun 1991 yilda mustaqillikka erishganimizdan so’ng ta’lim sohasidagi islohotlar boshlanmadi? Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy tartib va mehnat bozori talablarini

hisobga olgan holda, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining shaxsning ta'lim va kasbiy ehtiyojlarini qondirishga aniq yo'naltirilganligi yo'q edi. Ta'lim tizimida fan va ishlab chiqarish funksiyalari aniq belgilanmagan. Kasbiy tayyorgarlikning tor pragmatik yo'nalishi ustunlik qildi. Ta'lim va kasbiy dasturlar, ta'limning uzluksizligi, o'qitishning turli xil aloqalari o'rtasida ilmiy asoslangan bog'liqlik yo'q edi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasbhunar ta'limining joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi.

1. **Shaxs** - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim.

2. **Davlat va jamiyat** ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir. Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi. Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega.

Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subekt sifatida namoyon bo'ladi.

3. **Uzluksiz ta'lim** - malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor,

ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarurshart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

4. Fan - yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi».

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi».

5. Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiytexnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi.

Ma'rifatlilik - faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera oshadigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy harakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish

extiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb -hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi. O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan - akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilarda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat — mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim. Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi

tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi. Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U ikki bosqichdan iborat bo'lgan kirish doktoranturaga kirish huquqiga ega.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi uzluksiz rivojlanayotgan va modernizatsiyalashayotgan soha hisoblanadi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatalar strategiyasi". –T.: "Adolat", 2017 y.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017 y. – 491 b.
3. Barkamol avlod orzusi. – T.: sharq, 1999.
4. Ochilov.M. Muallim – qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001. – 429 b.
5. Qurbonov SH., Seythalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish.T.: «Turon-Iqbol», 2006.
6. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Falsafa ensiklopedik lug'at. Toshkent-2010.
7. Muyassar, N. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA KASBIY MOBILLIKNI RIVOJLANTIRISH VA ULAR ASOSIDA PEDAGOGIK MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 12-15..